

BOBUR LIRIKASIDA BADIY SAN'ATLARNING O'RNI

Ahmadova Azimaxon Behzod qizi

Farg'ona Davlat universiteti akademik litseyi o'quvchisi

E-mail: akhmadovaazima627@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ijod yo'lida badiiy san'atlarning tutgan o'rni, qo'llanilgan badiiy san'atlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boburnoma", "Risolayi aruz", "Mubayyin", "Woldiya", Bobur she'riyati.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль художественного искусства на пути творчества Захириддина Мухаммада Бабура, а также прикладного художественного искусства.

Ключевые слова: Бабурнома, «Рисолай Аруз», «Мубайин», «Волидия», поэзия Бабура.

ABSTRACT

This article discusses the role of artistic arts in the path of creation of Zahiriddin Muhammad Babur, and the applied artistic arts.

Key words: Baburnoma", "Risolayi Aruz", "Mubayyin", "Woldiya", Babur's poetry.

XVI-XIX asr adabiy jarayoni tarixiy, tazkira va badiiy asarlar orqali o'tmish hayoti haqida keng tushuncha bera oladigan davr hisoblanadi. Bu davrda Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Vosifiyning "Badoe ul-vaqoe", Boburning "Boburnoma", Mutribiyning "Tazkirat ush-shuaro" kabi asarlari qimmatlidir. Ular davr siyosiy-tarixiy hayotidan tashqari, madaniy-adabiy muhit borasida yaxlit ma'lumot beradi. Bu davrga kelib mumtoz adabiyotda yangi asarlar bilan bir qatorda bir necha xil san'atlar ham paydo bo'ldi va keng rivojlandi. Sharq mumtoz she'riyatida keng foydalanilgan san'atlardan biri irsolı masal san'ati hisoblanadi. Adabiyotshunos olim D. Quronovning "Adabiyotshunoslik lug'ati" kitobida unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Irsoli ul-masal arabchadan olingan bo'lib, mumtoz adabiyotdagi she'riy san'atlardan biri, she'rda ma'lum bir poetik maqsadda mashhur maqol, matal yoki hikmatli so'z keltirish. Shoir biror fikrni o'rtaga tashlar ekan, o'z fikrini isboti, izohi, tasdig'i uchun

xalq maqollari, hikmatli iboralarni tamsil yo‘li bilan keltiradi. Bu uch xil ko‘rinishda amalga oshishi mumkin.

1) Maqol yoki matal “masaldurkim”, “masalkim”, “derlar”, “aytadilarki”, “elda bor shunday masal” kabi ishoralar bilan keltiriladi;

2) Maqol yoki matal hech qanday ishoralarsiz aynan keltiriladi;

3) Mazmuni bayt yoki misra ichiga singdirib yuborilgani holda maqol yoki matal o‘z shaklini butunlay yo‘qotishi, biroz o‘zgartirishi yoki yangicha shaklga kelishi mumkin”.¹

Gapda yoki she’rda xalq og‘zaki ijodida mashhur bo‘lib ketgan biror maqol, matal, ibora yoxud hikmatli so‘z keltirib, nutq ta’sirchanligini oshirish usuliga irsolı masal san’ati deyiladi. Bu yerda irsol - keltirish, masal - misol, tamsil, maqol, matal, ibora ma’nolarini anglatadi. Eski o‘zbek tilida maqol, matal va iboralar masal yoki zarb ul-masal deyilgan. Hozirgi tilshunosligimizda maqol, matal, iboralarani frazeologizmlar deb yuritiladi. Irsoli masal san’ati o‘zbek yozma adabiyotining eng qadimgi namunalarida ham uchraydi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asarlarida bu ifoda va tasvir vositasining yuksak namunalariga duch kelamiz. Irsoli masalda muallif o‘z fikr-mulohazasini tap-tayyor maqol, matal, ibora yoki hikmatli so‘z orqali quvvatlab oladi, shu tariqa o‘quvchini ishontirishni kuchaytiradi, ifoda ta’sirchanligini oshiradi. Mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlarida irsolı masal san’atining eng yorqin namunalari mavjud. Irsoli masal san’ati Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ham yetakchi janrlardan biri hisoblanadi. Shoir she’riyatining o‘ziga xosligi shundaki, tasvir umumiyligidan konkretlikka o‘tadi. Tarixiylik badiiylik bilan muzayan holda ifodalanadi. Ananaviy oshiq tuyg‘ulari real shaxs kechinmalari bilan hamohanglashadi.²

Boburning bizga 400ga yaqin lirik asari yetib kelgan. Shundan 119 tasi g‘azal, 231 tasi ruboiy. G‘azallari qisqa hajmga ega. U, asosan, 5-7 baytli g‘azallar yaratgan. 4 baytlilari ham uchraydi. Bobur tuyg‘ulari tovlanuvchan shoir. Lirik qahramon ba’zan hayotning g‘animatligini teran anglagan, ruhiy erkinlikni qadrlagan hayotsevar inson sifatida, ba’zan esa armonlar iskanjasida azoblanuvchi mahzun, tushkun kayfiyatli inson sifatida tasavvurimizda paydo bo‘ladi. Ammo har qanday vaziyatda ham shoir o‘z ruhiy holatini yaxshilik va umidvorlikka yo‘naltira oladi. Quyidagi baytda shoir o‘zining yashash tamoyilini ifodalab bera olgan:

Bori elga yaxshiliq qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q,
Kim degaylor, daxr aro qoldi falondin yaxshilig‘.

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent.”Akademnashr”, 2013.122-bet

² Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2009. 27-bet

Bu baytda xalqning eng ezgu orzu-niyatlari bilan sug‘orilgan ikki fikr bayon etilgan. Birinchisi, elga yaxshilik qilgin, bundan yaxshi ish yo‘q olamda demoqchi bo‘lsa, ikkinchidan, yaxshilik qilgan olamdan o‘tsa ham nomi abadiy qoladi, ya’ni falondan yaxshilik qolgan deya eslanadi shaklidagi xalq hikmatlari ifodalangan. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov Bobur Mirzo ta’rifiga alohida e’tibor beradi: “Milliy adabiyotimiz tarixida hech qaysi adib o‘zi haqida bu qadar “ko‘b va xo‘b” yozgan, haq gapni mardona turib baralla aytgan emas. Buni Boburning o‘zi ham yaxshi bilgan, oshkora e’tirof etgan:

Har vaqtki, ko‘rgaysen mening so‘zumni,
So‘zumni o‘qub anglag‘aysen o‘zumni”.

Muallif tahlil jarayonida eng samarali usuldan foydalanadi. Avvalo, ijodkor shaxsi bilan bog‘liq voqealar bilan ketma-ketlik asosida tahlil qilib boradi. Bobur Mirzoning mardlik va muruvvatda, zakovat va matonatda tengsiz shaxsiyatiga maftun bo‘lib qolgan ijodkorga taxsin aytib, unga hamrohlik qiladi.

Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minalash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozzi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom va boshqa o‘nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba’zan aynan, ba’zan o‘zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz.¹

Bobur ijodidagi quyidagi baytda ham maqol she’rning mazmuni boyitgan:

Agarchi ko‘p so‘zung bor, muxtasar qil,
Ul oyg‘a so‘zning aslidin xabar qil.

Ya’ni, “Ko‘p so‘zlama, oz so‘zla, oz so‘zlasang ham soz so‘zla” xalq maqolidan o‘rinli foydalangan. Maqollar she’riyatning badiiy tasvirini yuksaltirib xalqona ruh bag‘ishlaydi. Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat’iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xiiligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo‘llanish o‘rniga qarab ularning ma’no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so‘zga alohida e’tibor berish kerak. Bobur o‘z ijodida bundan ustalik bilan foydalangan.

Birovningkim, birovdan ko‘ngli qolur,
Kishi yuz so‘z bila ko‘ngulni olur.

¹ O‘zbek xalq maqollari. “Sharq” nashriyot-matbaa. Toshkent – 2005.6-bet

Bu o‘rinda, bir so‘z bilan insonni ko‘nglini buzish mumkin, yoki yaxshi so‘z bilan insonning ko‘nglini olish mumkin degan xulosa kelib chiqadi. Bugungi kunda “Yaxshi so‘z jon ozig‘i” maqoliga o‘xshashdir.

Ko‘pu ozg‘a Tengridur berguchi,
Bu dargohda yo‘qtur kishining kuchi.

Bu baytdan anglashilgan ma’no xalq orasida juda keng tarqalgan hisoblanadi. Yoshi ulug‘lar bu iborani tez-tez takrorlaydilar. Ko‘pmi-ozmi Tangri berguchidir. Bu bandaning qo‘lida emas. Bobur o‘z ijodida xalq donishmandligidan unumli foydalangan. U so‘z qo‘llashda katta mas’uliyat bilan yondashadi. Har bir so‘zga chuqur ma’no yuklaydi.

Xalq orasida keng tarqalgan hikmatlardan unumli foydalana olgan shoirning bu bayti el orasida juda mashhurdir:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur,
Yaxshi kishi ko‘rmag‘ay yomonlig‘ hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa jazo topqusidur.

Shoir ijodida xalq og‘zaki ijodi motivlari juda keng qo‘llanilgan. Motiv-ohang. Og‘zaki folklor san’ati asarlarida: syujetning eng kichik elementi, hikoyaning eng sodda muhim tarkibiy qismi.¹ Bundan tashqari, Bobur she’riyatida tazod san’ati ham faol qo‘llanilgan. Bu san’at lirik qahramonning ziddiyatli kechinmalarini ifodalash uchun qo‘l keladi. Vafo-jafo, yaxshilik-yomonlik so‘zlarining parallel qo‘llanishi ruhiy tahlilni chuqurlashtirgan. Bobur lirikasida g‘azal va ruboiylar yetakchi mavqe tutadi. Adib ushbu janrlarning ijtimoiy motivlar bilan boyitishga katta hissa qo‘shadi. U she’rlarida iyhom, tajnis kabi murakkab san’atlardan ham mahorat bilan foydalangan.

Do‘stlar, ko‘nglumdagin qabrim toshig‘a yozg‘asiz
Toki birdek bo‘lgay ul oy ishqida ichim, toshim.

Ushbu baytda shoir “tosh” so‘zi orqali ham tajnis, ham iyhom san’atini qo‘llagan. Ikkinci misradagi “tosh” so‘zi tosh va tashqari ma’nolarini ifodalagan. Bu san’atlar shoirga qisqa jumlalarda kengroq mazmunni ifodalash imkonini bergen. Aslida bu misralar tarkibidan iching-tashing bir bo‘lsin iborasini yuzaga keltirsa ham bo‘ladi.

Har nimag‘a g‘am yema, g‘am ko‘p turur,
Aysh bila o‘zni ovtmoq kerak.

Shoir she’riyatini kuzatar ekanmiz, nazarimda, shunday bir mavzu borki, har bir asariga tomirda oquvchi qondek jon, tiriklik ato etib turadi. Dunyo tashvishlari hech qachon tugamaydi. Faqat undan nolib o‘tirmay, hayotdan zavq olib yashash kerak. “Bu dunyo o‘tar-ketar, yuzi qoralik qolar” shaklida ham qo‘llanadi.

¹ www. Ziyonet uz. Adabiy atamalar lug‘ati. 2012. 73-bet

O‘zungni shod tutqil, g‘am yema dunyo uchun zinhor
Ki, bir dam g‘am yemakka arzimas dunyoyi farsuda.

Bu ibora xalq orasida juda keng tarqalgan. Bu dunyo uchun g‘am yeb o‘tirishdan foyda yo‘q. chunki u bunga arzimaydi. “Bu dunyo o‘tar-ketar, yuzi qoralik qolar” kabi mazmunga to‘g‘ri keladi. Bobur-tuyg‘ulari ulkan shoir. U dunyonи ko‘ngil ko‘zлari bilan ko‘ra oladi. Borliqdagi har bir ashyodagi mo‘jiza, tilsimni anglaydi. Ularning tilini, qalbini tushunadi. Bobur ijodida voqelikning haqqoniy va ta’sirchan ifodalanishi masalasini tadqiq etishdan avval o‘tmish mumtoz merosimizga murojaat qilish katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada xalq og‘zaki poetik ijodi muhim manbadir. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari jahon adabiyoti durdonalariga aylandi. “Boburnoma”, “Risolayi aruz”, “Mubayyin”, “Volidiya” kabi ijod namunalari avlodlarni ma’naviy kamolotga ko‘taruvchi ulkan badiiy chashmadir. Sohir tuyg‘uylargacha, chuqr fikrlarga boy she’riyati shoirni dillarga yaqin etguvchi qanotlaridir. Ularda xalq ohangi taralib turadi. Xulosalar mukammal darajada beriladi.

Bori elga yaxshlig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q
Kim, degaylor dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘!

Yoki xalq orasida juda keng tarqalgan ruboilyardan biri:

Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,
G‘urbat bu aziz umrni kam qiladur.
Ne nav bitay firoq-u g‘urbat sharhin
Kim, ko‘z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.

Bobur she’riyati – mahzun she’riyat. Unda armonning suratini ko‘rish mumkin. Har bir bayt juda chuqr o‘y-mushohadaning mevasidir. Bobur she’riyati ulug‘ daryo. Unda xalq dardi yashiringan. Ushbu kichik bir g‘azal bir dunyo tuyg‘ularni, ichki kechinmalarni o‘z ichiga oladi. Bu tuyg‘ular o‘zining haqqoniyligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Ular kundalik hayot ko‘rinishlarining shoir qalbida tug‘dirgan g‘ulg‘ulalari ta’sirida yuzaga kelgan. Lirikasi xalq ohangiga boy. Ularda so‘z tartibi, maqol, matal, ibora mohirona joylashtirilgan. Bobur o‘zbeklar nomini jahonga tanitgan ulug‘ allomalardan biri bo‘ldi. U noyob qobiliyatga ega sarkarda va podshoh, ulkan tafakkur qudratiga ega tarixchi, olim va shoir sifatida dunyonи hayratga soldi.

Tarix avlodlarga kuch-qudrat beruvchi ulkan kuch manbai. Qadimdan insoniyat o‘z hayoti davomida go‘zallikdan, nafosatdan bahra olib yashagan. She’riyat inson tafakkurining eng chuqqur joylaridagi tilga ko‘cha olmagan tuyg‘ularni ohangga solib, ruhiy quvvat ulashib kelgan. Mumtoz she’riyatimizda ham ilohiy ishq eng yuksak darajada tarannum etiladi. Bu yuksaklik insoniyat yaralgandan buyon olamni anglashga bo‘lgan intilishlari natijasida yuzaga kelgandir. XXI asrda insoniyat juda ko‘p tushunchalarni anglashda, yangiliklar yaratishda, texnika sohasida bir necha yutuqlarni qo‘lga kirtitdi. Ammo bu yutuqlarning ta’mal toshlari o‘rta asrlarda

qo‘yilgan edi. Xalq ertaklaridagi uchar gilamlar-u, oinai jahon asrlar o‘tib, hayotda samolyot-u televizor ko‘rinishida paydo bo‘lganini hammamiz bilamiz. Ulug‘ ajdodlarimizning ilmiy-adabiy merosiga chuqur sho‘ng‘iganimiz sari yangidan yangi kashfiyat-u ixtirolarga innovatsiyalarga duch kelamiz. Masalan: Alisher Navoiy bir necha asr ilgari “Farhod va Shirin” dostonida shunday yozgan edi.

G‘aroyib ko‘p huvaydo bo‘lg‘usidir,
Bas, anda shakl paydo bo‘lg‘usidir...

Ekranda kadrlar bir sekundda 24 marotaba almashadi va jonli tasvir ko‘rinadi. Shakl bu kadrlar desak, ularning almashinuvidan turli-tuman g‘aroyibotlar, jonli suratlar, rangin qiyofalar silsilasi namoyon bo‘ladi. Eng ajablanarlisi, Navoiy bu qurilmani ham o‘z holicha “oinai jahon” deb nomlaydi. Shoir she’riyati xalq og‘zaki ijodidan ilhom olib uni yuksak darajaga olib chiqdi. G‘azallar tarkibiga singdirilgan tarbiyaviy g‘oyalar bugungi kun uchun ham g‘oyat qadrlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. 3.М.Бобур. Бобурнома. Тошкент. 1989.
2. Қиронов Д., Адабиётшуносликка кириш.-Т., 2007, 100-102-бетлар^{1,2}
3. Умurov Ҳ. Адабиёт қоидалари.-Т.; 2010.Б 82-бет³
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.-Т.;2002.^{4,5}
5. www.ziyonet. Boburnome.uz